XI. DEMOGRAFIK HOLAT VA BANDLIK

Navoiy viloyati va hududlarning tashkil topgan yillari hamda ularning markazlari

	Tashkil topgan yil	*Viloyat va tuman, shaharlar markazlari*	*Yer maydoni, ming. kv. km.*
Navoiy viloyati	**27.01.1992-y.**	**Navoiy sh.**	**111,1**
Navoiy sh.	1958-y.	Navoiy sh.	0,06
Zarafshon sh.	1972-y.	Zarafshon sh.	0,02
G‘ozg‘on sh.	03.05.2019-y.	G‘ozg‘on sh.	0,59
Karmana t.	09.09.1926-y.	Karmana sh-cha.	0,94
Konimex t.	29.12.1965-y.	Konimex sh-cha.	9,25
Qiziltepa t.	07.12.1970-y.	Qiziltepa sh.	2,19
Navbahor t.	12.03.1980-y.	Beshrabot sh-cha.	1,57
Nurota t.	29.09.1926-y.	Nurota sh.	5,94
Tomdi t.	03.07.1927-y.	Tomdibuloq sh-cha.	42,49
Uchquduq t.	25.03.1982-y.	Uchquduq sh.	46,63
Xatirchi t.	03.12.1964-y.	Yangirabot sh.	1,42

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2023- yil 1- oktabr holatiga viloyatda doimiy aholi soni 1 070 539 kishini tashkil etdi va yil boshidan 15 082 kishiga yoki 1,4 foizga ko‘paydi.

Doimiy aholi soni[1)]

(2023- yil 1- oktabr holatiga, kishida)

	Jami aholi	*shu jumladan:*		*1 kv. km ga to‘g‘ri keladiganlar soni*
		shahar aholisi	*qishloq aholisi*	
Jami	**1 070 539**	**525 312**	**545 227**	**9,6**
Navoiy sh.	159 785	159 785	-	2 663,1
Zarafshon sh.	87 815	87 815	-	4 390,8
G‘ozg‘on sh.	9 223	9 223	-	15,6
Karmana t.	138 076	45 149	92 927	146,9
Konimex t.	37 392	17 098	20 294	4,0
Qiziltepa t.	161 201	50 247	110 954	73,6
Navbahor t.	120 460	17 294	103 166	76,7
Nurota t.	89 297	50 779	38 518	15,0
Tomdi t.	15 494	5 109	10 385	0,4
Uchquduq t.	39 226	34 362	4 864	0,8
Xatirchi t.	212 570	48 451	164 119	149,7

Doimiy aholi soni
(2023-yil 1-oktabr holatiga)



Aholining tabiiy harakati
2023- yil yanvar- sentabr

	kishi			*har 1000 aholiga nisbatan* (promille)	
	2022-y.	*2023-y.*[1)]	*o'sish, kamayish*	*2022-y.*	*2023-y.*[1)]
Tug'ilganlar	19 658	20 506	848	25,2	25,8
O'lganlar	3 176	3 348	172	4,1	4,2
Tabiiy o'sish	16 482	17 158	676	21,1	21,6
Nikohlar	6 343	5 906	-437	8,1	7,4
Ajralishlar	1 060	1 109	49	1,4	1,4

[1)] dastlabki ma'lumot

Har 1 000 aholiga nisbatan tabiiy harakati (promille)



Tug‘ilish darajasi. 2023- yilning yanvar- sentabr oylarida tug‘ilganlar soni 20 506 kishini tashkil qildi va 2022-yilning shu davriga (19 658 kishi) nisbatan 848 taga ko‘paygan. Tug‘ilish koeffitsiyenti mos ravishda 25,8 promilleni tashkil qildi va 2022-yilning shu davriga (25,2 promille) nisbatan 0,6 promillega ko‘payganini ko‘rsatmoqda.

Tug‘ilish darajasi viloyatning G‘ozg‘on shahrida (18,4 dan 23,2 promillega), Nurota tumanida (24,4 dan 28,6 promillega), Konimex tumanida (19,2 dan 23,2 promillega), Zarafshon shahrida (23,1 dan 25,3 promillega), Navbahor tumanida (23,0 dan 25,1 promillega), Qiziltepa tumanida (22,3 dan 23,7 promillega), Karmana tumanida (26,2 dan 26,9 promillega) va Uchquduq tumanida (24,1 dan 24,7 promillega) oshgan bo‘lib, Navoiy shahrida (32,5 dan 27,7 promillega) va Tomdi tumanida (17,1 dan 16,4 promillega) kamayish kuzatildi.

O‘lim darajasi. 2023- yilning yanvar- sentabr oylarida o‘lganlar soni 3 348 kishini tashkil qildi va 2022-yilning shu davriga (3 176 kishi) nisbatan 172 taga ko‘paydi. O‘lim koeffitsiyenti mos ravishda 4,2 promilleni tashkil qildi (2022- yil yanvar- sentabr oylarida 4,1 promillega) nisbatan 0,1 promillega o‘zgarganini ko‘rsatmoqda.

O‘lganlar soni G‘ozg‘on shahrida (0,9 dan 4,4 promillega), Nurota tumanida (4,6 dan 5,5 promillega), Konimex tumanida (4,8 dan 5,4 promillega), Xatirchi tumanida (3,7 dan 3,9 promillega), Navbahor tumanida (3,9 dan 4,1 promillega) va Navoiy shahrida (5,0 dan 5,1 promillega) oshgan bo‘lsa, Zarafshon shahrida (2,9 dan 2,6 promillega), Uchquduq tumanida (3,2 dan 2,7 promillega) va Tomdi tumanida (4,5 dan 3,9 promillega) kamayish kuzatildi.

Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni
(Yanvar- sentabr oylarida, birlik)

	Tuzilgan nikohlar		*Nikohdan ajralishlar*	
	2022	*2023*	*2022*	*2023*
Jami	**6 343**	**5 906**	**1 060**	**1 109**
Navoiy sh.	1 139	1 033	234	282
Zarafshon sh.	516	426	103	67
G‘ozg‘on sh.	42	51	3	0
Karmana t.	814	799	183	182
Konimex t.	189	154	38	38
Qiziltepa t.	922	907	102	137
Navbahor t.	670	677	110	101
Nurota t.	524	482	53	47
Tomdi t.	37	34	9	2
Uchquduq t.	213	179	42	48
Xatirchi t.	1 277	1 164	183	205

Viloyat bo‘yicha tuzilgan nikohlarda hududlarning ulushi, % da



Viloyat bo‘yicha nikohdan ajralishlarda hududlarning ulushi, % da



Nikohlar va ajralishlar. 2023- yilning yanvar- sentabr oylarida FHDYo organlarida 5 906 ta nikohlar va 1 109 ta ajralishlar ro‘yxatga olindi. Har ming aholiga nisbatan 7,4 promille nikoh (2022-yilning tegishli davrida 8,1 promille) va 1,4 promille ajralishlar (2022-yilning tegishli davrida 1,4 promille) ga to‘g‘ri keldi.

Tuzilgan nikohlar viloyatning G‘ozg‘on shahrida (6,2 dan 7,4 promillega) oshgani kuzatildi.

Nikohdan ajralganlar viloyatning Navoiy shahrida (2,0 dan 2,4 promillega), Qiziltepa tumanida (0,9 dan 1,1 promillega), Uchquduq tumanida (1,5 dan 1,6 promillega) va Xatirchi tumanida (1,2 dan 1,3 promillega) oshgani kuzatildi.

Aholining tabiiy harakati koeffitsiyentlari

(Yanvar- sentabr oylarida 1 000 aholi soniga nisbatan)

promille

	Tug‘ilganlar		O‘lganlar		Aholining tabiiy o‘sishi	
	2022-y.	2023-y.[1)]	2022-y.	2023-y.[1)]	2022-y.	2023-y.[1)]
Jami	**25,2**	**25,8**	**4,1**	**4,2**	**21,1**	**21,6**
Navoiy sh.	32,5	27,7	5,0	5,1	27,5	22,6
Zarafshon sh.	23,1	25,3	2,9	2,6	20,2	22,7
G‘ozg‘on sh.	18,4	23,2	0,9	4,4	17,5	18,8
Karmana t.	26,2	26,9	4,7	4,7	21,5	22,2
Konimex t.	19,2	23,2	4,8	5,4	14,4	17,8
Qiziltepa t.	22,3	23,7	3,8	3,8	18,5	19,9
Navbahor t.	23,0	25,1	3,9	4,1	19,1	21,0
Nurota t.	24,4	28,6	4,6	5,5	19,8	23,1
Tomdi t.	17,1	16,4	4,5	3,9	12,6	12,5
Uchquduq t.	24,1	24,7	3,2	2,7	20,9	22,0
Xatirchi t.	26,0	26,0	3,7	3,9	22,3	22,1

Viloyat bo‘yicha aholining tabiiy o‘sish koeffitsiyenti, promilleda



[1)] dastlabki ma’lumot

Tabiiy o‘sish. 2023- yilning yanvar- sentabr oylarida aholining tabiiy o‘sish koeffitsiyenti mos ravishda 21,6 promilleni tashkil qildi va 2022-yilning shu davriga (21,1 promille) nisbatan 0,5 promillega ko‘payganini ko‘rsatmoqda.

Tabiiy o‘sish koeffitsiyenti Konimex tumanida (17,8 dan 14,4 promillega), Nurota tumani (19,8 dan 23,1 promillega), Zarafshon shahrida (20,2 dan 22,7 promillega), Navbahor tumanida (19,1 dan 21,0 promillega), Qiziltepa tumanida (18,5 dan 19,9 promillega), G‘ozg‘on shahrida (17,5 dan 18,8promillega), Uchquduq tumanida (20,9 dan 22,0 promillega) va Karmana tumanida (21,5 dan 22,2 promillega) oshgan bo‘lib, Navoiy shahrida (27,5 dan 22,6 promillega), Xatirchi tumanida (22,3 dan 22,1 promillega) va Tomdi tumanida (12,6 dan 12,5 promillega) kamayish kuzatildi.

Viloyat bo‘yicha ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni
(Yanvar- sentabr oylarida, kishi)

	Ko‘chib kelganlar		*Ko‘chib ketganlar*		*Migratsiya saldosi*	
	2022	*2023*	*2022*	*2023*	*2022*	*2023 1)*
Jami	**6 842**	**8 155**	**7 054**	**10 231**	**-212**	**-2 076**
Navoiy sh.	3 184	3 739	2 181	2 617	1 003	1 122
Zarafshon sh.	34	1 225	758	1 391	-724	-166
G‘ozg‘on sh.	11	12	6	15	5	-3
Karmana t.	1 496	1 265	929	1 158	567	107
Konimex t.	302	149	232	632	70	-483
Qiziltepa t.	252	268	491	653	-239	-385
Navbahor t.	397	286	534	594	-137	-308
Nurota t.	177	326	518	562	-341	-236
Tomdi t.	215	140	61	605	154	-465
Uchquduq t.	386	370	453	925	-67	-555
Xatirchi t.	388	375	891	1 079	-503	-704

Viloyat bo‘yicha ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni
(Yanvar- sentabr oylarida, kishi)



Migratsiya. Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2023- yilning yanvar- sentabr oylarida viloyat bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni 8 155 kishini, shu davr mobaynida ko‘chib ketganlar soni esa 10 231 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig‘i manfiy 2 076 kishiga (2022- yilning shu davrida manfiy 212 kishi) teng bo‘ldi.

Viloyat hududida migratsiya qoldig‘i, Xatirchi tumanida (manfiy 704 kishiga), Uchquduq tumanida (manfiy 555 kishiga), Konimex tumanida (manfiy 483 kishiga), Tomdi tumanida (manfiy 465 kishiga), Qiziltepa tumanida (manfiy 385 kishiga), Navbahor tumanida (manfiy 308 kishiga), Nurota tumanida (manfiy 236 kishiga), Zarafshon shahrida (manfiy 166 kishiga) va G‘ozg‘on shahrida (manfiy 3 kishiga) kamayish kuzatildi.

Viloyat hududida migratsiya qoldig‘i Navoiy shahrida (1 122 kishiga) va Karmana tumanida (107 kishiga) oshgani kuzatildi.